

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI

### **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BOJXONA XIZMATI ORGANLARI FAOLIYATINI TUBDAN TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA**

Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida davlat xizmatlarining shaffofligini va ulardan erkin foydalanish imkoniyatini, mamlakatning iqtisodiy manfaatlarini hisobga olgan holda, eksport-import operatsiyalarining mutanosibligini ta'minlash tadbirkorlik faoliyatini jadal rivojlantirish, investitsiya va eksport salohiyatini oshirish, aholining turmush sharoiti va sifatini yaxshilashning eng muhim shartlari hisoblanadi.

Shu bilan birga, bojxona nazorati va rasmiylashtiruvining murakkab tartib-taomillari va uzoq muddatlari, bojxona organlari xodimlari o'rtasidagi korrupsiyaviy huquqbuzarlik va xizmat vakolatlarini suiiste'mol qilish holatlarining saqlanib qolayotganligi islohotlarning to'liq amalga oshirilishiga to'sqinlik qilmoqda.

Bundan tashqari, tashqi savdo operatsiyalarini monitoring qilish sohasida idoralararo va xalqaro hamkorlikning sust tashkil etilganligi kontrabanda va kontrafakt mahsulotlarni olib kirishning oldini olish vazifalarini samarali bajarish, bojxona to'lovlarini to'lashdan bo'yin tovlash sxemalarini aniqlash imkonini bermayapti.

Umume'tirof etilgan xalqaro norma va standartlar asosida bojxona organlari faoliyatini hamda bojxona ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, tadbirkorlik va turizmni faol va jadal rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida:

1. Talon-toroj qilish, mansab vakolatini suiiste'mol qilish va boshqa jinoyatlarni sodir etganlik uchun bojxona organlarining mansabdor shaxslariga nisbatan prokuratura organlari tomonidan jinoyat ishlari qo'zg'atilganligi va tergov olib borilayotganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar O'zbekiston Respublikasi bojxona organlarini isloh qilishning muhim yo'nalishlari hisoblansin:

birinchidan, bojxona organlarining barcha darajadagi tuzilmalari vazifa va funksiyalarini aniq belgilash hamda taqsimlash, shuningdek, bojxona organlari markaziy va hududiy mahkamalarining samarali faoliyat ko'rsatishini tashkil qilishda sohaviy tuzilmalarning muvofiqlashtiruvchi roli va uslubiy ko'magini kuchaytirish;

ikkinchidan, bojxona organlari tizimida korrupsiya ko'rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirish, xalqning ishonchini mustahkamlash va davlat bojxona xizmati obro'sini oshirish, xodimlarni ijtimoiy himoya qilish va moddiy rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish;

uchinchidan, Oliy harbiy bojxona instituti faoliyatini, yuqori professional ko'nikmaga, ma'naviy-axloqiy sifatlarga va Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg'usiga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash, tanlash hamda joy-joyiga qo'yish tizimini tubdan takomillashtirish;

to'rtinchidan, tovarlarni noqonuniy olib kirishning asosiy shakllari va uslublari hamda bojxona to'lovlarini to'lashdan bo'yin tovlash sxemalari haqidagi ma'lumotlarni aniqlash, o'rganish va umumlashtirish orqali bojxona to'lovlarining o'z vaqtida va to'liq to'lanishini ta'minlash, budjetning daromad qismini oshirish;

beshinchidan, "yalpi" bojxona nazoratini o'tkazishdan har tomonlama tahlil asosida bojxona nazorati obyektlarini aniqlash, shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari uchun ma'muriy to'siqlarni kamaytirish imkonini beruvchi xavfni boshqarish tizimiga o'tish;

oltinchidan, bojxona nazoratini amalga oshirishning zamonaviy shakllari, uslublari va texnik vositalarini tatbiq etish hisobiga Davlat chegara o'tkazish punktlarida bojxona tartib-taomillarini amalga oshirishning davomiyligini qisqartirish;

yettinchidan, bojxona organlari barcha tarkibiy tuzilmalarining faoliyati va idoralararo axborot almashinuvi samaradorligini oshirishga qaratilgan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish;

sakkizinchidan, xorijiy davlatlarning bojxona organlari va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni yanada kengaytirish, bojxona ishi sohasida ilg'or tajribani, xalqaro norma va standartlarni tizimli o'rganish va joriy qilish.

3. Quyidagilarni nazarda tutuvchi Davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi (keyingi o'rinlarda Dastur deb yuritiladi) [ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin:

bojxona organlarining faoliyatini takomillashtirish bo'yicha institutsional o'zgarishlar, ularning vazifa va funksiyalarini optimallashtirish;

bojxona organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash;

bojxona nazorati samaradorligini oshirish va bojxona tartib- taomillarini soddalashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

samarali idoralararo hamkorlikni ta'minlash;

kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish, bojxona organlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish.

Vazirlik va idoralar, birinchi navbatda, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi rahbarlari Dasturda nazarda tutilgan tadbirlarning o'z vaqtida va samarali amalga oshirilishi uchun shaxsan javobgar ekanligi belgilansin.

4. 2018-yil 1-iyuldan boshlab shunday tartib belgilansinki, unga muvofiq:

tovarlarni bojxona rejimlariga joylashtirishda, shuningdek, xorijiy avtotashuvchilarning O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab harakatlanish marshrutlarini o'zgartirishga bojxona organlari tomonidan beriladigan ruxsatnomalar bekor qilinadi;

bir tashqi savdo shartnomasi (kontrakti) doirasida aynan bir xil tovarlarning bojxona rasmiylashtiruvchi (jismoniy xususiyati, sifati, ishlab chiqaruvchisi, tashqi iqtisodiy faoliyatning tovar nomenklatura kodi bo'yicha) davriy deklaratsiyalarni taqdim etish orqali amalga oshiriladi;

aynan bir xil tovarlarga bir tashqi savdo shartnomasi (kontrakti) doirasida karantin ruxsatnomalar, o'simlik va hayvonot dunyosi obyektlarini, ozon yemiruvchi moddalar va ulardan tashkil topgan mahsulotlarni olib kirish hamda olib chiqish uchun ruxsatnomalar, muvofiqlik sertifikatini, veterinar, gigiyenik va ekologik sertifikatlar bir kalendar yilidan oshmagan muddatga bir marotaba taqdim etiladi;

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(4-bandning beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-martdagi PF-5971-sonli Farmoniga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 20.03.2020-y., 06/20/5971/0348-son)*

tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari bojxona brokyerlariga murojaat qilmasdan bojxona yuk deklaratsiyalarini Internet tarmog'i orqali real vaqt rejimida to'ldirish va bojxona organlariga taqdim etish huquqiga ega;

import tovarlari amalda O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga yetib kelishidan oldin, jumladan tovarlarni bevosita chegara o'tkazish punktlarida erkin muomalaga chiqarish orqali insofli tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarini rag'batlantirish maqsadida ushbu tovarlarni dastlabki deklaratsiyalash amaliyoti joriy etiladi;

*Oldingi tahrirga qarang.*

bojxona organlari soliq organlari va Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti organlari bilan birgalikda ustav kapitalida davlat ulushi bo'lgan davlat korxonalarini va tashkilotlari tomonidan import qilinayotgan tovarlarning narxini oshirib ko'rsatish holatlari bo'yicha muntazam ravishda monitoring o'tkazadi;

*(4-bandning sakkizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi PF-5547-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.10.2018-y., 06/18/5547/1975-son)*

bojxona omborlarida uch yildan ortiq saqlanib kelinayotgan mol-mulklar bojxona organlari tomonidan ushlab qolinadi va ular uch oy davomida talab qilib olinmagan hollarda sud qarori asosida davlat foydasiga undiriladi, keyinchalik belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi tomonidan sotiladi yoki yo'q qilinadi;

bojxona organlari tadbirkorlik subyektlari tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarning to'g'riligi va ularning tashqi savdo faoliyati qonuniyligini tekshirish maqsadida tovarlar va transport vositalari erkin muomalaga chiqarilgandan so'ng ularning bojxona nazoratini amalga oshiradi;

bojxona organlari tomonidan yetakchi xalqaro tashkilotlar uslubiyoti asosida muntazam ravishda tovarlar bojxona rasmiylashtiruvining o'rtacha vaqti tizimli o'rganib boriladi, ularning natijalari e'lon qilinadi, shuningdek, ushbu sohadagi ko'rsatkichlarni izchil yaxshilash bo'yicha ta'sirchan chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

4<sup>1</sup>. Bojxona omborlari, erkin omborlar va boj olinmaydigan savdo do'koni faoliyatini litsenziyalash qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar boshqarmalari va "Tashkent-AERO" ixtisoslashgan bojxona majmuasi tomonidan amalga oshiriladi.

*(4<sup>1</sup>-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-martdagi PF-5971-sonli Farmoniga asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 20.03.2020-y., 06/20/5971/0348-son)*

5. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tuzilmasida shtat birliklarining umumiy soni doirasida quyidagilar tashkil etilsin:

a) Bojxona ma'muriyatchiligining ilg'or va innovatsion usullarini joriy etish boshqarmasi, uning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

Butunjahon savdo tashkiloti, Butunjahon bojxona tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlarning standartlari hamda tavsiyalarini tahlil qilgan holda bojxona ishini rivojlantirish va takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish;

bojxona qonunchiligi va huquqni qo'llash amaliyotini yanada takomillashtirish hamda huquqiy normalarni erkin, subyektiv va tanlov asosida talqin qilish holatlarini istisno etish yuzasidan takliflar tayyorlash;

bojxona sohasida huquqbuzarliklarni sodir etish sabab va shart-sharoitlarini tizimli tahlil qilishni tashkil etish hamda ularni bartaraf etish bo'yicha ta'sirchan choralarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini tubdan isloh qilish, bojxona organlarining yuridik va jismoniy shaxslar bilan bevosita muloqotsiz munosabatga kirishish shakllarini joriy etish;

bojxona ishi hamda bojxona organlari xodimlarini tayyorlash va ularning malakasini oshirish sohasida ilg'or xorijiy tajribani o'rganish, ularni O'zbekiston Respublikasida joriy etish yuzasidan takliflar tayyorlash;

b) Xavflarni monitoring qilish va baholash boshqarmasi, uning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

bojxona organlarida bojxona qonun hujjatlari buzilishi xavfi yuqori bo'lgan tovar va tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilarini nazorat qilish uchun kuch va vositalarni jamlashni nazarda tutuvchi xavfni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish;

xavfi yuqori bo'lgan, shu jumladan dastlabki ma'lumotlarni tahlil qilish va tasodifiy tanlov asosida tovar partiyalarini bojxona nazorati uchun maqsadli tanlab olish metodologiyasini ishlab chiqish;

vijdonli tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilarini aniqlash, ularga nisbatan soddalashtirilgan bojxona tartib-taomillarini qo'llashning tartib va mezonlarini ishlab chiqish;

xavfni boshqarish tizimi samarali qo'llanilishini doimiy monitoring qilish, uni yanada takomillashtirish va uzluksiz ishlashini ta'minlash;

v) Tashqi savdo operatsiyalari va bojxona statistikasi monitoringi boshqarmasi, uning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

tashqi savdo operatsiyalarining monitoringini tashkil etish, eksport-import shartnomalari ijrosini tahlil qilish, shuningdek, bojxona organlariga taalluqli tashqi savdo operatsiyalari o'tkazilishida valyuta qonunchiligiga amal qilish;

O'zbekiston Respublikasining tashqi savdosini rivojlantirish tendensiyalari, shuningdek, mamlakatning savdo hamkorlari bo'lgan mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalar bo'yicha taxliliy ma'lumotlar tayyorlash;

tovarlarning tashki savdosi bo'yicha bojxona statistikasini yuritish, ularni shakllantirishning barcha bosqichlarida haqqoniyligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

tashki savdo sohasida statistik ma'lumotlarning to'g'riligini ta'minlash va huquqbuzarlikning belgilarini aniqlash maqsadida xorijiy davlatlarning bojxona xizmatlari bilan axborot almashish.

6. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi:

2018-yil 1-sentabrga qadar muddatda tovarlarning bojxona nazoratini tanlov asosida o'tkazishni nazarda tutuvchi xavfni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimi ishlab chiqilishi va joriy etilishini ta'minlasin;

qonun hujjatlari normalari bir xilda qo'llanilishi, bojxona tartib-taomillari samaradorligi, tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasiga muvofiq tovarlarni to'g'ri tasniflash, ularning bojxona qiymatini to'g'ri aniqlashni monitoring qilish va baholashni nazarda tutuvchi bojxona postlari faoliyatini nazorat qilishning ta'sirchan tizimini ishlab chiqsin;

"Islom Karimov nomidagi "Toshkent" xalqaro aeroporti" va "Toshkent-tovar" bojxona postlarida bojxona tartib-taomillarini maksimal darajada soddalashtirish, bojxona to'lovlarining to'liq va o'z vaqtida to'lanishini ta'minlash, tovarlarning noqonuniy importi va kontrabandani aniqlashga qaratilgan bojxona ma'muriyatchiligining zamonaviy uslublarini qo'llash bo'yicha dastlabki loyihalarni amalga oshirish ishlarini tezlashtirish hamda ijobiy tajribani boshqa bojxona postlarida qo'llash;

moddiy rag'batlantirish va intizomiy jazo choralarini muvozanatli ko'llash imkonini beruvchi bojxona postlari xodimlarining faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini ishlab chiqish va joriy etish.

7. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi raisi:

yuqori professional mahorat, axloqiy va ma'naviy sifatlarga ega, har tomonlama yetuk va vatanparvar yoshlarni bojxona organlariga jalb etishga yo'naltirilgan kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yishning prinsipial jihatdan yangi tizimini yaratish;

xodimlarning xizmatga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartirish, qonun buzilishining barcha ko'rinishlariga nisbatan murosasiz munosabat muhitini yaratish, jamoada sog'lom muhitni shakllantirish;

fidokorona xizmat qilayotgan xodimlarni har tomonlama rag'batlantirish, xizmat intizomini hamda qonunchilik talablarini qo'pol ravishda buzgan xodimlarni intizomiy va boshqa javobgarliklarga tortish bo'yicha choralar ko'rsin.

8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

a) bir oy muddatda quyidagilar bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqsin va tasdiqlasin:

hududlarda "yagona darcha" tamoyili asosida bojxona, bank, logistik, tezkor-laboratoriya, fitosanitar, veterinar, sanitar-epidemiologik, ekologik, sertifikatlashtirish, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik asosida boshqa xizmatlar ko'rsatadigan zamonaviy logistik markazlarni tashkil etish;

davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlaridagi chegara bojxona postlarini zamonaviy inspeksiyaviy-ko'rik majmualari va boshqa bojxona nazoratining texnik vositalari bilan jihozlash;

temir yo'l chegara bojxona postlarini davlat chegarasida temir yo'l sostavlari kesishish joylariga ko'chirish hamda ushbu joylarda bojxona va boshqa turdagi davlat nazoratini amalga oshirish uchun zarur infratuzilmani tashkil etish masalasini o'rganish;

b) uch oy muddatda davlat chegara o'tkazish punktlarining bino, inshootlar va avtomobil o'tish punktlarining holatini o'rganish hamda aniq davlat organini belgilash va unga quyidagi vazifalarni yuklash:

joriy ta'mirlash, kapital qurilish, texnik jihozlashni amalga oshirish, shuningdek, yondosh hududlarini obodonlashtirish;

yangi o'tkazish punktlarini qurish;

davlat chegarasi orqali avtomobil o'tkazish punktlarini bosqichma-bosqich balansga qabul qilish.

9. 26-yanvar O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati xodimlarining kuni etib belgilansin.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ikki oy muddatda O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati xodimlari kunini belgilash to‘g‘risida”gi Qonun loyihasi belgilangan tartibda ishlab chiqilishi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritilishini ta‘minlasin.

10. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi, Tashqi savdo vazirligi, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda 2018-yil 1-noyabrga qadar muddatda O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining yangi tahrirdagi loyihasini quyidagilarga alohida e‘tibor qaratgan holda ishlab chiqsin:

bojxona qonunchiligini liberallashtirish, bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va shaffofligini ta‘minlash, normalarni qabul qilishda barcha uchun tushunarli va turlicha talqin qilish imkoniyatini istisno etishga;

tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari tomonidan bojxona qonunchiligiga rioya etilishining rag‘batlantirish mexanizmini yaratishga;

O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalari normalari, umume‘tirof etilgan xalqaro huquq tamoyillarini, xalqaro tashkilotlarning tavsiyalari va standartlarini implementatsiya qilishga;

bojxona ma‘muriyatchiligi sohasida rivojlangan mamlakatlar tajribasi, shu jumladan tariflarni tartibga solish va bojxona nazoratini tashkil etishga.

11. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda:

bojxona organlari faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlarni nazarda tutuvchi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori loyihasini;

qonun hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o‘zgartish va qo‘shimchalar to‘g‘risidagi takliflarni kiritsin.

12. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari N.S. Otajonov va O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining raisi M.B. Azimov zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,  
2018-yil 12-aprel,  
PF-5414-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-apreldagi PF-5414-son Farmoniga  
ILOVA

**Davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha**

**CHORA-TADBIRLAR DASTURI**

<b>T/r</b>	<b>Chora-tadbirlar nomi</b>	<b>Amalga oshirish mexanizmlari</b>	<b>Ijro muddatlari</b>	<b>Mas‘ul ijrochilar</b>
<b>I. Bojxona organlari faoliyatini takomillashtirish, vazifalari va funksiyalarini optimallashtirish bo‘yicha institutsional yangilanishlar</b>				
1.	O‘zbekiston Respublikasi bojxona organlari faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlarni nazarda tutuvchi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori loyihasini ishlab chiqish.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi	2018-yil 1-mayga qadar	DBQ (M. Azimov), Adliya vazirligi (R. Davletov), manfaatdor vazirlik va idoralar

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmlari	Ijro muddatlari	Mas'ul ijrochilar
2.	<p>Bojxona ma'muriyatchiligining ilg'or va innovatsion usullarini joriy etish boshqarmasi to'g'risidagi nizom loyihasini ishlab chiqish, unda quyidagi asosiy vazifalarni nazarda tutish:</p> <p>Bojxona ishini rivojlantirish va takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini, shu jumladan Jahon savdo tashkiloti, Jahon bojxona tashkiloti, boshqa xalqaro institutlar standartlari va tavsiyalari tahlili asosida ishlab chiqish;</p> <p>bojxona qonunchiligi va huquqni qo'llash amaliyotini yanada takomillashtirish, shuningdek, huquqiy normalarni talqin etishda o'zboshimchalik, subyektiv, tanlab olish faktlarini bartaraf etish bo'yicha takliflar tayyorlash;</p> <p>bojxona sohasida huquqbuzarliklar sodir etish sabablari va sharoitlarining tizimli tahlilini tashkil etish, ularga chek qo'yish bo'yicha ta'sirchan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;</p> <p>davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini tubdan yaxshilash, bojxona organlarining jismoniy va yuridik shaxslar bilan hamkorlik qilishning muloqotsiz shakllarini joriy etish;</p> <p>bojxona ishi sohasida ilg'or xorijiy tajribani o'rganish, bojxona organlari xodimlarini tayyorlash va malakasini oshirish, O'zbekiston Respublikasida uni joriy etish bo'yicha takliflar tayyorlash.</p>	Davlat bojxona qo'mitasi raisining buyrug'i loyihasi	2018-yil 1-mayga qadar	DBQ (M. Azimov)
3.	<p>Quyidagi asosiy vazifalarni yuklagan holda Xavflarni monitoring qilish va baholash boshqarmasi to'g'risidagi nizom loyihasini ishlab chiqish:</p> <p>bojxona qonunchiligini buzish xavfi yuqori darajali bo'lgan tovarlar va tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarini nazorat qilish uchun kuch va vositalarni jamlashni nazarda tutadigan xavf-xatarlarni boshqarish</p>	Davlat bojxona qo'mitasi raisining buyrug'i loyihasi	2018-yil 1-mayga qadar	DBQ (M. Azimov), DSQ (B. Musayev), MB (M. Nurmuratov)

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmlari	Ijro muddatlari	Mas'ul ijrochilar
	<p>avtomatlashtirilgan tizimini bojxona organlarida joriy etish;</p> <p>yuk tashuvchilar va tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari tomonidan taqdim etiladigan dastlabki axborotni tahlil qilish asosida xavflar baland bo'lgan tovarlar partiyasining bojxona nazorati uchun maqsadli tanlab olish uslubiyatini ishlab chiqish;</p> <p>tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining insofliligini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish, ularga nisbatdan soddalashtirilgan bojxona tartib-taomillarini joriy etish;</p> <p>xavflarni boshqarish tizimini samarali joriy etishni muntazam monitoring qilish, uning yanada takomillashtirilishi hamda uzluksiz faoliyat yuritishini ta'minlash.</p>			
4.	<p>Quyidagi asosiy vazifalarni o'z ichiga olgan Tashqi savdo operatsiyalarini monitoring qilish va bojxona statistikasi boshqarmasi to'g'risidagi nizom loyihasini ishlab chiqish:</p> <p>tashqi savdo tashkilotlarining monitoringini tashkil etish, import va eksport tuzilmasining tizimli tahlilini amalga oshirish;</p> <p>bojxona organlariga tegishli qismi bo'yicha tashqi savdo operatsiyalarini olib borishda valyutaga oid qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, qonun buzilishi holatlari bo'yicha choralar ko'rish;</p> <p>tovarlarni eksport va import qilish bo'yicha bojxona statistikasini yuritish, uni shakllantirishning barcha bosqichlarida ishonchlilikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;</p> <p>tuzilgan xalqaro shartnomalar asosida, olib kiriladigan tovarlarning bojxona narxlarini belgilash maqsadida xorijiy mamlakatlarning bojxona xizmatlari bilan axborot almashishni amalga oshirish, O'zbekistondan eksport qilinadigan, tovarlar</p>	Davlat bojxona qo'mitasi raisining buyrug'i loyihasi	2018-yil 1-mayga qadar	DBQ (M. Azimov)

<b>T/r</b>	<b>Chora-tadbirlar nomi</b>	<b>Amalga oshirish mexanizmlari</b>	<b>Ijro muddatlari</b>	<b>Mas'ul ijrochilar</b>
	yetkazilishi kerak bo'lgan mamlakatda bojxona rasmiylashtiruv jarayonlarini soddalashtirish.			
5.	Bojxona ekspertizasi va tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlari nomenklaturasini yuritish boshqarmasi faoliyatini samarali tashkil etish hamda quyidagilarni nazarda tutish: aniq vakolat, funktsiya, vazifa, huquq va majburiyatlarni belgilagan holda Boshqarma to'g'risidagi nizom loyihasini ishlab chiqish; 16 dona laboratoriya uskunalarini Davlat bojxona qo'mitasining hududiy boshqarmalariga topshirish; Boshqarma xodimlarini ixtisoslashtirilgan mahalliy va xorijiy muassasalardagi uskunalarda ishlashi uchun tizimli ravishda o'qitib borish.	Davlat bojxona qo'mitasi raisining buyrug'i loyihasi	2018-yil 1-mayga qadar	DBQ (M. Azimov)
6.	Xalqaro hamkorlik boshqarmasi faoliyatini tashkil etishning samarali mexanizmlarini yaratish, unga quyidagi vazifalarni yuklash: xalqaro-huquqiy hamkorlik sohasidagi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish; xalqaro talablarni tayyorlash, yo'llash va hisobga olish.	Davlat bojxona qo'mitasi raisining buyrug'i loyihasi	2018-yil 1-mayga qadar	DBQ (M. Azimov)
7.	Davlat bojxona qo'mitasi tarkibiy bo'linmalari faoliyatini tartibga soladigan nizomning yangi tahririni ishlab chiqish va tasdiqlash.	Davlat bojxona qo'mitasi raisining buyrug'i loyihasi	2018-yil 1-mayga qadar	DBQ (M. Azimov)
8.	“O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlari xodimlari kunini belgilash to‘g‘risidagi” Qonun loyihasini ishlab chiqish.	O‘zbekiston Respublikasi Qonuni loyihasi	2018-yil 1-iyulga qadar	DBQ (M. Azimov), Adliya vazirligi (R. Davletov), manfaatdor vazirlik va idoralar
9.	“O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlari bayrog‘i va tanish belgisini, shuningdek ularni tayyorlash, ulardan foydalanish, saqlash va yo‘q qilish tartibi haqidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlash.	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi	2018-yil 1-iyungacha qadar	DBQ (J. Aripov), Adliya vazirligi (R. Davletov), manfaatdor vazirlik va idoralar
<b>II. BOJXONA NAZORATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH</b>				



T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmlari	Ijro muddatlari	Mas'ul ijrochilar
10.	<p>Quyidagilarga yo'naltirilgan bojxona organlarida xatarlarni boshqarish tizimini joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish:</p> <p>bojxona qonunchiligini buzish xavfi darajasi yuqori bo'lgan tovarlar va tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarini nazorat qilishni nazarda tutuvchi maqsadli tanlab olish asosida xatarlarni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish;</p> <p>tashqi iqtisodiy faoliyatning halol ishtirokchilarini belgilash uchun mezonlarni ishlab chiqish, ularga nisbatdan soddalashtirilgan bojxona tartib-taomillarini qo'llashni joriy etish;</p> <p>xatarlarni boshqarish tizimining joriy etilishi munosabati bilan amaldagi qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.</p>	Chora-tadbirlar kompleksi	2018-yil 1-sentabrgacha	DBQ (J. Aripov), Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (O. Umarov)
11.	O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali avtomobil, temir yo'l va havo transporti orqali, ularning bojxona hududiga kirib kelishidan oldin (shu jumladan tranzit shartlarida) tovarlar va transport vositalari to'g'risida yuk tashuvchilar tomonidan bojxona organlarini oldindan ogohlantirish tartibini ishlab chiqish va tasdiqlash.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi	2018-yil 1-iyungacha	DBQ (J. Aripov), Adliya vazirligi (R. Davletov), "O'zbekiston havo yo'llari" MAK (V. Xakimov), manfaatdor vazirlik va idoralar
12.	<p>Xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalarini nazorat qilish va hisobga olishni ta'minlash, shu jumladan quyidagilarni nazarda tutuvchi chora-tadbirlarni amalga oshirish:</p> <p>soliq to'lovchining shaxsiy raqami va pasport ma'lumotlari bo'yicha shaxsni aniqlash uchun Davlat bojxona qo'mitasi va Davlat soliq qo'mitasi elektron bazalarini integratsiyalashtirish;</p> <p>jismoniy shaxslar manziliga xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalari orqali mamlakatimiz hududiga kelayotgan tovarlar to'g'risida dastlabki elektron</p>	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori loyihasi	2018-yil 1-iyungacha	DBQ (J. Aripov), DSQ (B. Musayev) Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (O. Umarov) "O'zbekiston havo yo'llari" MAK (V. Xakimov), manfaatdor vazirlik va idoralar

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmlari	Ijro muddatlari	Mas'ul ijrochilar
	<p>ma'lumotlarni bojxona organlariga majburiy taqdim etish mexanizmini joriy etish;</p> <p>xorijiy tajribani hisobga olgan holda, pochta va kuryerlik jo'natmalari orqali bir kalendar oy mobaynida bir nafar jismoniy shaxsga jo'natiladigan tovarlarning bojxona to'lovlariga tortilmaydigan olib kirish me'yorlarini belgilash;</p> <p>xalqaro aeroportlarda joylashgan bojxona postlarida – havo transporti orqali, maxsus belgilangan bojxona postlarida – temir yo'l va avtomobil transporti orqali yetkazib beriladigan xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalarini majburiy bojxona rasmiylashtirilishini belgilash.</p>			
13.	<p>Xalqaro aeroportlarda “yashil” va “qizil” yo'laklar tizimining joriy etilishi munosabati bilan yo'lovchilar, ularning qo'l yuki va bagajini bojxona nazoratidan o'tkazish vaqtini qisqartirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan, shu jumladan quyidagilarni nazarda tutadigan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish:</p> <p>avia tashuvchilar tomonidan bojxona organlariga O'zbekistonning xalqaro aeroportlari orqali kelayotgan va ketayotgan yo'lovchilar to'g'risidagi dastlabki ma'lumotni taqdim etish tartibini ishlab chiqish va amalga oshirish;</p> <p>O'zbekistonning xalqaro aeroportlarida tashuvlarni tashkil qiladigan xizmatlar tomonidan yo'lovchilarning yuklarini joylashtirish vaqtini qisqartirish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish;</p> <p>chegaraga tutash bojxona postlarini zamonaviy texnik bojxona nazorati vositalari bilan jihozlash (shaxslar va boshqalarni bevosita aloqasiz ko'zdan kechirish skanyerlari orqali tekshirish);</p> <p>huquqbuzarlikni aniqlashning psixologik usullari, skaner qiladigan uskunalardan foydalanish bo'yicha</p>	Chora-tadbirlar kompleks dasturi	2018-yil 15-mayga qadar	DBQ (J. Aripov), “O'zbekiston havo yo'llari” MAK (V. Xakimov)

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmlari	Ijro muddatlari	Mas'ul ijrochilar
	bojxona organlari xodimlari uchun o'quv kurslarini tashkil etish.			
14.	Tovarlarning bojxona narxini belgilash va nazorat qilish, shuningdek, bojxona xizmatlari o'rtasida axborot almashish maqsadida O'zbekiston Respublikasining asosiy savdo sheriklari (MDHga a'zo mamlakatlar, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya Respublikasi va boshqalar) – davlatlarining bojxona xizmatlari bilan hamkorlik qilish to'g'risidagi bitimni ishlab chiqish va tuzish.	Xalqaro shartnomalar loyihalari	2019-yil 1-yanvarga qadar	DBQ (J. Aripov), TIV (B. Asadov)
15.	Bevosita chegaradagi o'tkazish punktlarida import qilinadigan tovarlarni erkin aylanmaga chiqarish orqali tashqi iqtisodiy faoliyatning insofli ishtirokchilarini rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga ularning kirib kelishidan avval tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari tomonidan import qilinadigan tovarlarni dastlabki deklaratsiya qilinishi tartibini ishlab chiqish va tasdiqlash.	Davlat bojxona qo'mitasi raisining buyrug'i loyihasi	2018-yil 1-sentabrga qadar	DBQ (J. Aripov), Adliya vazirligi (R. Davletov)
16.	Bojxona identifikatsiyasi vositalarini qo'llash (plombalar, plombalaydigan uskunalar va boshqalar), xavfsizlik va ishonchlilik (tashqi ta'sirlarni fiksatsiya qilish, ko'p marotaba ishlatish, soxtalashtirishdan himoya qilish, ochilish holatlarida masofadan turib signal berish va boshqalar) talablariga javob beradigan, jahonning yetakchi plombalar ishlab chiqaruvchilari takliflari bo'yicha xorijiy mamlakatlar bojxona xizmatlarining ilg'or tajribasini o'rganish. Bojxona identifikatsiyasining ishonchli vositalarini bojxona organlari faoliyati uchun buyurtirish, xarid qilish va foydalanish bo'yicha takliflarini ishlab chiqish va kiritish.	Davlat bojxona qo'mitasi raisining buyrug'i loyihasi	2018-yil 1-mayga qadar	DBQ (J. Aripov)
17.	Xorijiy avto tashuvchilarni O'zbekiston Respublikasi hududida MDP kitobchalarini qo'llagan holda xalqaro yuklarni tashish to'g'risidagi	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar	2018-yil 1-iyungacha qadar	DBQ (J. Aripov), manfaatdor vazirlik va idoralar

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmlari	Ijro muddatlari	Mas'ul ijrochilar
	Bojxona konvensiyasi nizomlaridan foydalanish huquqidan mahrum qilish va mazkur huquqni tiklaydigan tartibni belgilaydigan normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish.	Mahkamasi qarori loyihasi		
18.	O'zbekiston Respublikasiga olib kiriladigan, ularni xalqaro identifikatsiya unikal kodi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazish asosida mobil moslamasi va mobil aloqa modulli moslamalarini nazorat qilish va hisobga olish bo'yicha tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi	2018-yil 1-sentabrga qadar	Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarni rivojlantirish vazirligi (O. Umarov), Tashqi savdo vazirligi (J. Xodjayev), Iqtisodiyot vazirligi (B. Xodjayev), Moliya vazirligi (A. Xaydarov), DBQ (J. Aripov), DSQ (B. Musayev)
19.	Erkin ombor, bojxona ombori va bojsiz savdo do'koni faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq litsenziya jarayonlaridan o'tishni yanada soddalashtirish.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi	2018-yil 1-sentabrga qadar	DBQ (J. Aripov), Adliya vazirligi (R. Davletov), manfaatdor vazirlik va idoralar
<b>III. BOJXONA TARTIB-TAOMILLARINI SODDALASH TIRISH ChORA-TADBIRLARINI AMALGA OSHIRISH</b>				
20.	<p>Quyidagilarga:</p> <p>bojxona qonunchiligini liberallashtirish, bojxona jarayonlarining shaffofligi hamda soddalashtirilishini, normalarning barchaga birdek tushunarli bo'lishini ta'minlash va ularning turlicha talqin qilinishiga barham berish;</p> <p>tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari tomonidan bojxona qonunchiligiga rioya etilishini rag'batlantirish mexanizmlarini yaratish;</p> <p>O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari normalari, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan tamoyillari, xalqaro tashkilotlarning tavsiyalari va standartlarini implementatsiya qilish;</p> <p>bojxona ma'muriyatchiligi sohasida, shu jumladan tariflarni tartibga solish va bojxona ko'rigini tashkillashtirishda rivojlangan xorijiy</p>	O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi loyihasi	2018-yil 1-noyabrga qadar	DBQ (J. Aripov), Tashqi savdo vazirligi (J. Xodjayev), Moliya vazirligi (A. Xaydarov), Iqtisodiyot vazirligi (B. Xodjayev), Adliya vazirligi (R. Davletov), DSQ (B. Musayev) manfaatdor vazirlik va idoralar

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmlari	Ijro muddatlari	Mas'ul ijrochilar
	mamlakatlarning tajribasiga e'tibor qaratgan holda O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining yangi tahriri loyihasini ishlab chiqish.			
21.	Yuk bojxona deklaratsiyalarini davriy taqdim etib borish orqali bittatashqi savdo shartnomasi (kontrakti) doirasida eksport yoki import qilinadigan bir xil tovarlarni (tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasining jismoniy xarakteristikasi, sifati, ishlab chiqaruvchisi, kodi bo'yicha) bojxona rasmiylashtiruv tartibi to'g'risidagi nizomni ishlab chiqish va tasdiqlash.	Davlat bojxona qo'mitasi raisining buyrug'i loyihasi	2018-yil 1-mayga qadar	DBQ (J. Aripov), Adliya vazirligi (R. Davletov)
22.	Amaldagi qonun hujjatlariga O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqiladigan tovarlarning bojxona narxini belgilash va deklaratsiya qilish tartibini bekor qilishni nazarda tutadigan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi	2018-yil 1-iyungacha qadar	DBQ (J. Aripov), Tashqi savdo vazirligi (J. Xodjayev), manfaatdor vazirlik va idoralar
23.	Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi kodi bo'yicha tovarlarni identifikatsiya va klassifikatsiya qilish bo'yicha ekspert muassasalari xizmatlarini ko'rsatish tartibini belgilaydigan nizomni ishlab chiqish.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi	2018-yil 1-iyungacha qadar	Tashqi savdo vazirligi (J. Xodjayev), DBQ (J. Aripov), manfaatdor vazirlik va idoralar
24.	Amaldagi qonun hujjatlariga quyidagilarni nazarda tutadigan o'zgartirish va qo'shimchalarni kiritish bo'yicha takliflarni tayyorlash: bevosita Tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari tomonidan real vaqt rejimida, ular tomonidan o'qish va malaka attestatini olish bo'yicha majburiyatlarga rioya etmagan holda tovarlarni rasmiylashtirishda yuk bojxona deklaratsiyasini to'ldirish imkoniyatini yaratish; bojxona brokeri sifatida faoliyat yuritish uchun ruxsat beruvchi hujjatlarni bekor qilish; Davlat bojxona qo'mitasining bojxona rasmiylashtiruv bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash (o'qitish) funksiyalarini boshqa tashkilotlarga o'tkazish.	O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari loyihalari	2018-yil 1-iyungacha qadar	DBQ (J. Aripov), Adliya vazirligi (R. Davletov), manfaatdor vazirlik va idoralar

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmlari	Ijro muddatlari	Mas'ul ijrochilar
25.	Bir tashqi savdo shartnomasi (kontrakti) doirasida bir xil turdagi tovarlarga karantin ruxsatnomasi, o'simlik va hayvonot dunyosi obyektlarini olib kirish va olib chiqish ruxsatnomasi, ozon qatlamlarini yemiruvchi moddalar va ularning tarkibida ular mavjud bo'lgan moddalar, muvofiqlik sertifikat, veterinar, gigiyenik va ekologik sertifikatlari bir marotaba, biroq bir yildan ortiq bo'lmagan muddatga berilishini nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish.	Normativ huquqiy hujjatlar loyihalari	2018-yil 1-iyunga qadar	O'zstandart agentligi (A. Karimov), SSV (A. Shodmonov), Davlat geologiya qo'mitasi (B. Qo'chqorov), O'zdavkarantin (I. Ergashev), Davlat veterinariya qo'mitasi (I. Norqobilov)
26.	Import qilinadigan iste'mol tovarlariga nisbatdan bojxona boji va aksiz solig'ining (bojxona narxidan foiz hisobidan, biroq boj yoki aksizga tortiladigan tovarning donasi uchun belgilangan miqdordagi stavkasidan kam bo'lmagan holda) aralash stavkalarini bekor qilish bo'yicha takliflar tayyorlash.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi	2018-yil 1-iyunga qadar	Tashqi savdo vazirligi (J. Xodjayev), Iqtisodiyot vazirligi (B. Xodjayev), Moliya vazirligi (A. Xaydarov), DBQ (J. Aripov)
27.	Bojxona organlari tomonidan tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilariga ko'rsatiladigan yuk bojxona deklaratsiyalarini to'ldirish, shu jumladan amaldagi bojxona yig'imlari stavkalarini optimizatsiya qilish va pullik xizmatlar turlarini kengaytirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish va kiritish.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi	2018-yil 1-iyunga qadar	DBQ (J. Aripov), Moliya vazirligi (A. Xaydarov), manfaatdor vazirlik va idoralar
28.	Bojxona to'lovlari bo'yicha imtiyozlarni qo'llashni nazarda tutadigan, ularning maqsadga muvofiqligi nuqtai nazaridan amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni inventarizatsiyadan o'tkazish, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga ularni optimizatsiya qilish bo'yicha takliflar kiritish.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi	2018-yil 1-iyulga qadar	Iqtisodiyot vazirligi (B. Xodjayev), Moliya vazirligi (A. Xaydarov), DBQ (J. Aripov), DSQ (B. Musayev)
29.	Tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining ortiqcha vaqti va moliyaviy xarajatlari ortishiga olib keladigan eksport-import tovarlarining bojxona rasmiylashtiruv muddatlarining ijrosini sezilarli cho'zilib ketishiga olib keladigan,	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasiga qarorlari loyihasi	2018-yil 1-iyulga qadar	DBQ (J. Aripov), Adliya vazirligi (R. Davletov), Tashqi savdo vazirligi (J. Xodjayev),

<b>T/r</b>	<b>Chora-tadbirlar nomi</b>	<b>Amalga oshirish mexanizmlari</b>	<b>Ijro muddatlari</b>	<b>Mas'ul ijrochilar</b>
	ularga xos bo'lmagan vazifalar va funksiyalarni bojxona organlaridan olib tashlashga yo'naltirilgan amaldagi qonun hujjatlarini inventarizatsiya qilish va unga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.			manfaatdor vazirlik va idoralar
30.	Fito nazorat va veterinariya nazoratini hamda boshqa organlar funksiyalarini chegara yaqinidagi bojxona postlaridagi bojxona organlariga topshirish.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi	2018-yil 1-iyunga qadar	DBQ (J. Aripov), manfaatdor vazirlik va idoralar
<b>IV. IDORALARARO SAMARALI HAMKORLIKNI TA'MINLASH</b>				
31.	Ish eglamenti, tartibi, takliflarni ishlab chiqish va qarorlar qabul qilish mexanizmlarini nazarda tutgan holda Idoralararo bojxona-tarif kengashi to'g'risidagi nizomni ishlab chiqish.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi	2018-yil 1-iyunga qadar	Tashqi savdo vazirligi (J. Xodjayev), Iqtisodiyot vazirligi (B. Xodjayev), DBQ (J. Aripov), DSQ (B. Musayev)
32.	Xo'jalik subyektining faoliyatiga ortiqcha aralashmagan holda taqdim etilgan bojxona imtiyozlaridan maqsadli foydalanilishini kameral o'rganish va nazorat qilishni amalga oshirish bo'yicha Davlat soliq qo'mitasi va Davlat bojxona qo'mitasi hamkorligi mexanizmini ishlab chiqish hamda tasdiqlash.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi	2018-yil 1-iyunga qadar	DSQ (B. Musayev), DBQ (J. Aripov), manfaatdor vazirlik va idoralar
33.	O'zbekistondan eksport qilinadigan tovarlarning kontrakt narxlarining to'g'riligini monitoring va nazorat qilish bo'yicha idoralararo mexanizmini ishlab chiqish hamda tasdiqlash.	Idoralararo qaror loyihasi	2018-yil 1-iyunga qadar	Tashqi savdo vazirligi (J. Xodjayev), Iqtisodiyot vazirligi (B. Xodjayev), DBQ (J. Aripov), DSQ (B. Musayev)
<b>V. BOJXONA ORGANLARI FAOLIYATINING OCHIQLIGI VA SHAFFOFLIGINI TA'MINLASH</b>				
34.	O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasida murojaatlarni qabul qilish bo'yicha kechayu-kunduz ishlaydigan yagona qisqa raqamli "ishonch telefoni"ni tashkil etishni nazarda tutadigan, bojxona organlarida murojaatlar, jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish bo'yicha sifat jihatidan yangi tartibni joriy etish.	Davlat bojxona qo'mitasi raisining buyrug'i loyihasi	2018-yil 1-mayga qadar	DBQ (M. Azimov)
35.	Aholi, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarini axborot bilan	Chora-tadbirlar kompleksi	2018-yil	DBQ (J. Aripov),

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmlari	Ijro muddatlari	Mas'ul ijrochilar
	<p>ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish:</p> <p>jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish uchun ularning huquqlarini amalga oshirishda ko'maklashishga yo'naltirilgan stend, broshyura, buklet va boshqa vositalar bilan xonalarni jihozlash;</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi faoliyati to'g'risidagi normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa ma'lumotlar, shuningdek, elektron shaklda rasmiy veb-saytda davlat bojxona xizmati organlariga taqdim etiladigan turli hujjatlar blanklarini joylashtirish yo'li orqali keng foydalana olish imkoniyatlarini ta'minlash.</p>		1-mayga qadar	manfaatdor vazirlik va idoralar
36.	<p>Televideniya va radioda muntazam ko'rsatuvlar tashkil etish, bosma va elektron ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan rasmiy veb-saytda axborotlarni chop etish orqali bojxona organlarining faoliyati natijalari to'g'risida hisobotlar va sharhlarni e'lon qilib borish.</p>	Chora-tadbirlar dasturi	2018-yil 1-mayga qadar	DBQ (J. Aripov), manfaatdor vazirlik va idoralar
37.	<p>Davlat bojxona xizmati organlari bo'linmalari faoliyati samaradorligi, shu jumladan tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari tomonidan ish natijalari, shuningdek, ular bilan hamkorlik, faoliyatning ochiqligi va hammabopligi, jamoatchilik fikrini hisobga olish va fuqarolarning qanoatlanganligini nazarda tutuvchi baholashning yangi mezonlarini joriy etish.</p>	Davlat bojxona qo'mitasi raisining buyrug'i loyihasi	2018-yil 1-mayga qadar	DBQ (J. Aripov), Adliya vazirligi (R. Davletov)
38.	<p>Qonun hujjatlari va aholiga interaktiv xizmatlar ko'rsatish talablariga muvofiq Davlat bojxona qo'mitasining bo'linmalari bo'yicha bo'limlarni yaratgan holda O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining (www.customs.uz) veb-saytini modernizatsiya qilish.</p>	Veb-saytni ishlab chiqish va foydalanishga topshirish	2018-yil 1-iyulga qadar	DBQ (J. Aripov), Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (O. Umirov)
<b>VI. KADRLARNI TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH</b>				



T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmlari	Ijro muddatlari	Mas'ul ijrochilar
39.	<p>Quyidagilarni nazarda tutgan holda Oliy harbiy bojxona instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish:</p> <p>ixtisoslashtirilgan fanlar bo'yicha o'quv dasturlarida yangilangan ta'lim standartlarini ishlab chiqish va tasdiqlash;</p> <p>yuqori malakali ilmiy-pedagog kadrlar bilan to'ldirish;</p> <p>o'quv jarayoniga jalb etilayotgan ilmiy-pedagog kadrlar, tajribali mutaxassis-amaliyotchilari uchun mehnatga haq to'lashning soatbay rag'batlantiruvchi tizimini joriy etish;</p> <p>xalqaro va xorijiy ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan keng hamkorlikni tashkil etish;</p> <p>davlat bojxona xizmati organlarining safdagi xodimlari uchun o'qishning sirtqi ta'lim olish shaklini joriy etish.</p>	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi	2018-yil 1-iyunga qadar	DBQ (J. Aripov), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (I. Majidov), Moliya vazirligi (A. Xaydarov),
40.	<p>Quyidagilarni hisobga olgan holda Milliy kinologiya markazi faoliyatini tubdan takomillashtirish, maqsadli vazifalarini aniqlashtirish:</p> <p>qo'shni davlatlarda giyohvand moddalarni ishlab chiqarish va noqonuniy aylanmasi hajmlarining ortib borayotganligi;</p> <p>chegaradosh davlatlar bilan chegarada o'tish punktlarining qayta tiklanganligi;</p> <p>rivojlangan mamlakatlarning kinologiya xizmatlari tajribasi.</p>	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi	2018-yil 1-iyunga qadar	DBQ (J. Aripov), manfaatdor vazirlik va idoralar
41.	Bojxona ishi sohasida yanada ilg'or ishlash tizimiga ega xorijiy mamlakatlarning malakali mutaxassislarini jalb qilish orqali davlat bojxona xizmatlari organlari faoliyatining eng dolzarb yo'nalishlari bo'yicha tajriba almashishni tashkil etish.	Chora-tadbirlar kompleksi	2018-yil 1-mayga qadar	DBQ (J. Aripov), TIV (B. Asadov)
<b>VII. BOJXONA ORGANLARI XODIMLARINI IJTIMOY HIMOYA QILISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH</b>				
42.	Davlat bojxona xizmati organlari xodimlari uchun yashash xonalarini ijaraga olish (yollash) tartibi va pul kompensatsiyalari miqdorini tasdiqlash.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi	2018-yil 10-iyunga qadar	DBQ (M. Azimov), Moliya vazirligi (A. Xaydarov)

<b>T/r</b>	<b>Chora-tadbirlar nomi</b>	<b>Amalga oshirish mexanizmlari</b>	<b>Ijro muddatlari</b>	<b>Mas'ul ijrochilar</b>
43.	Davlat bojxona xizmati xodimlariga uy-joy sotib olish uchun uzoq muddatli ipoteka kreditlarini berish tartibi to'g'risidagi nizomni ishlab chiqish va tasdiqlash.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi	2018-yil 1-iyungacha qadar	DBQ (J. Aripov), Markaziy bank (M. Nurmuratov), manfaatdor vazirlik va idoralar
44.	Davlat bojxona xizmati organlarining xizmat uy-joy fondini shakllantirish, uy-joy va yashash sharoitlarini yaxshilashga muhtoj deb, topilgan xodimlarga xizmat uy-joylarini berish tartibini ishlab chiqish va tasdiqlash.	Tashkiliy chora-tadbirlar kompleksi	2018 — 2021-yillar mobaynida	DBQ (J. Aripov), Moliya vazirligi (A. Xaydarov), Qurilish vazirligi (lavozimi bo'yicha), Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari



*LexUZ sharhi*

*Ilova norasmiy tarjima.*

